

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



FILOLOGIYA

PHILOLOGY

**NURALI QOBUL HIKOYALARIDA ROVIY USLUBI VA UNING BADIY
VAZIFASI**

*Talipova Aida Muratovna
TTYSI, 3kurs doktoranti*

Annotatsiya: Badiiy asarlarda til va hikoyachi obrazi muhim o‘rin tutadi. Hikoyachi – voqealarni tasvirlashda asosiy vosita bo‘lib, u asarning tarkibiy va badiiy qiymatini belgilaydi. Hikoyachi voqealarni nafaqat tasvirlaydi, balki o‘quvchiga ma’lum bir munosabatni ham yetkazadi. Uning nutqi, uslubi va voqealarga yondashuvi asar mazmuniga ta’sir qiladi. Shu bois, hikoyachi obrazi har bir badiiy asarning muhim qismi hisoblanadi. Nurali Qobul hikoyalarida hikoyachi obrazi va uning uslubi katta ahamiyatga ega. Uning asarlarida hikoyachi turli shakllarda namoyon bo‘lib, voqealarni turli nuqtayi nazarlardan yoritadi. Ba’zan betaraf hikoyachi sifatida, ba’zan esa shaxsiy munosabatini bildiruvchi hikoyachi sifatida chiqadi. Shuningdek, ijtimoiy muammolar va insonparvarlik g‘oyalarini yoritishda ham hikoyachi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada hikoyachi obrazining xususiyatlari, tasvir uslublari va ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi. hikoyadagi voqeani tasvirlashda roviy obrazi, yetakchilikka ega.

Kalit so‘zlar: hikoyachi obrazi, obraz, tasvir uslublari, ijtimoiy muammolar, Badiiy matn, personaj, kompazitsiya elementlari.

**СТИЛЬ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ РАССКАЗЧИКА В РАССКАЗАХ
НУРАЛИ КАБУЛА**

Аннотация: В художественных произведениях язык и образ рассказчика занимают важное место. Рассказчик - основное средство описания событий, определяющее структурную и художественную ценность произведения. Рассказчик не только описывает события, но и передает читателю определенное отношение. Его речь, стиль и подход к событиям влияют на содержание произведения. Поэтому образ рассказчика является важной частью любого художественного произведения. Образ рассказчика и его стиль имеют большое значение в рассказах Нурали Кабула. В его произведениях рассказчик проявляется в различных формах, освещая события с разных точек зрения. Иногда выступает как нейтральный рассказчик, а иногда как рассказчик, выраждающий личное отношение. Рассказчик также играет важную роль в освещении социальных проблем и гуманистических идей. В данной статье анализируются особенности образа

рассказчика, его стили изображения и социальное содержание. Образ рассказчика играет ведущую роль в изображении событий в рассказе.

Ключевые слова: образ рассказчика, образ, стили изображения, социальные проблемы, художественный текст, повествователь-персонаж, композиционные элементы

STYLE OF THE NARRATOR IN THE STORIES OF NURALI QABUL AND ITS ARTISTIC FUNCTION

Annotation: In literary works, the language and image of the storyteller occupy an important place. The storyteller is the main means of describing events, determining the structural and artistic value of the work. The narrator not only describes the events but also conveys a certain attitude to the reader. His speech, style, and approach to events influence the content of the work. Therefore, the image of the storyteller is an important part of any literary work. The image of the storyteller and his style are of great importance in the stories of Nurali Kabul. In his works, the storyteller manifests himself in various forms, illuminating events from different points of view. Sometimes acts as a neutral narrator, and sometimes as a narrator expressing a personal attitude. The narrator also plays an important role in illuminating social problems and humanistic ideas. This article analyzes the characteristics of the narrator's image, his depiction styles, and social content. The image of the storyteller plays a leading role in the depiction of events in the story.

Keywords: narrator's image, image, depiction styles, social problems, literary text, narrator-character, compositional elements.

Kirish

Yozuvchi badiiy vogelikni yaratar ekan, tilning tasviriylik, hissiylik xususiyatidan foydalanadi. Natijada ifoda qilinayotgan bitta gap mazmunida ham biz obraz yoki obrazli ifodani ko‘rishimiz mumkin. Shu ma’noda muallif hikoya qilayotgan voqeа va undagi obrazlar muallifga tegishli bo‘ladi. Ma’lumki, “Badiiy tilni tadqiq qilganingizda, har bir gap va jumladan ma’lum mavzu va g‘oya, ma’lum obraz va xarakter, ma’lum syujet va konfliktning zarrachalari chiqib kela boshlaydi. Shu sababli badiiy asar tili hamisha badiiy estetik kategoriya sifatida tahlil qilinishi va asarning boshqa komponentlari bilan uzviy tekshirilishi kerak”. Shu ma’noda asar tilini birinchi galda muallif nutqi yoki roviy bayoni orqali tekshirilishi kerak deb hisoblaymiz. Chunki asar, yozuvchi u tasvirlayotgan roviy yoki roviy-personaj tilidan so‘zlanadi. Bu esa roviy obrazini ham tekshirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Mazkur tadqiqotda Nurali Qobul hikoyalarida hikoyachi obrazining badiiy vazifasini o‘rganish uchun turli ilmiy manbalar tahlil qilindi. Badiiy asarlarda hikoyachi rolini tadqiq etgan mutaxassislarining asarlari va nazariy yondashuvlari asosida tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, hikoyachi uslubini, uning tasvir texnikasini va psixologik ta’sirini o‘rganishda tahliliy va strukturaviy yondashuvlardan foydalanildi. Nurali Qobul hikoyalari

kompozitsiyasida asar tili, xususan, monologik nutq, dialogik nutq va voqeani bayon qilish usuli ham boshqalarnikidan ajralib turadi.

Biz yuqorida tahlil etgan hikoyalarda asosan bosh qahramon roviy-bayonchi vazifasini bajargan. “Badiiy asarda barcha obrazlar, jumladan, yozuvchining o‘zi ham umumlashma obrazlar, tipiklashgan xarakterlar tarzida namoyon bo‘ladi... Badiiy asarda avtor obrazi bilan qahramonlar obrazi dialektik birlikda yashaydi, bir-birini ochishga xizmat qiladi”. Shu ma’noda Nurali Qobul roviy-personaji yoki roviy nutqida personajning turmush tarzi, o‘y-fikrlari, hayotiy detallariga mos komponentlar beriladi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Nurali Qobul hikoyalarida hikoyachi obrazi bir necha shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Uning asarlarida roviy nafaqat voqealarni tasvirlovchi shaxs, balki bevosita ularda ishtirok etuvchi personaj sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayrim hikoyalarda hikoyachi shaxsiy taassurotlari va hissiyotlari orqali voqealarni aks ettirsa, boshqalarida esa betaraf kuzatuvchi sifatida harakat qiladi.

Shuningdek, tahlil davomida Nurali Qobul hikoyalarida hikoyachining uslubi obrazning o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ma’lum bo‘ldi. Hikoyachi nutqi, tasvir texnikasi va voqealarga bo‘lgan yondashuvi asarlarning badiiy qiymatini belgilaydi. Hikoyalarda ishlatalgan obrazli ifoda vositalari, psixologik tahlil usullari va nutq uslubi muallif maqsadini olib berishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Nurali Qobulning hikoyalari voqealar roviy tilidan bayon qilinlar ekan. Uning nutqida peyzaj va obrazlarning aniq tasviri beriladi. Bu roviy nutqi rang-barangligini ta’minlaydi. Ikkinci tomondan olganda peyzaj va portret muallif-roviy obrazining aniq hikoya kompozitsiyasidagi o‘rnini ham ko‘rsatadi. Masalan, “Qaytish”, “Oy to‘lishayotgan tun” kabi hikoyalari bayonida roviy obrazi yetakchiligi yaqqol seziladi. Bunda avval ta’kidlaganidek, peyzaj, portret usulining o‘rni bor. Yozuvchi hikoyani bevosita roviy-personaj tilidan so‘zlaydi.

Muhokamalar davomida hikoyachi obrazining ijtimoiy mazmunni yetkazishdagi ahamiyati ham ko‘rib chiqildi. Nurali Qobul hikoyalarida hikoyachi turli ijtimoiy muammolarni yoritishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyachi tomonidan berilgan shaxsiy qarashlar, ijtimoiy masalalarga bo‘lgan munosabat va inson ruhiyatini aks ettirish usullari orqali muallif o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari hikoyachi obrazining nafaqat badiiy jihatdan, balki ijtimoiy mazmunni olib berishdagi o‘rnini tasdiqladi. Nurali Qobul asarlarida hikoyachi faqat voqealarni tasvirlovchi shaxs emas, balki muallif pozitsiyasini yetkazuvchi muhim element hisoblanadi.

Xulosa. Umuman olganda, roviy nutqidagi kompozitsion elementlar, asar mazmunidagi muammo, epik kechinma, g‘oyaviy yo‘nalish kabilar o‘zaro yaxlit tizimga kirishib roviy obrazining dunyoqarashi kengligini ko‘rsatadi. Roviy-personaj(muallif) burgut hayoti, turmush tarzi va kurashining mantig‘ini bilish uchun ko‘p narsani bilishini isbotlagan. Garchi asarga burgut obrazi odam va tabiat o‘rtasidagi munosabat buzilishi sifatida asarga kirib kelgan bo‘lsada, lekin burgut mag‘rur, erk, ozodlik uchun kurashuvchi obraz sifatida tasvirlangan. Obrazning

o‘zini tutishi, badiiy asar doirasidagi harakati o‘z mohiyatiga ko‘ra, dinamik xususiyatga ega. Badiylikning ana shunday o‘ziga xos qonuniyatlari borki, ulardan biri – bu shaklda o‘zgaruvchanlik mazmunda esa o‘zgarmaslikdir. Aslida hikoya ham shakl va mazmun birligi jihatidan o‘ziga xos yaxlitlikka, puxtalikka ega. Yozuvchi hikoya kompozitsiyasini doimiy harakatdagi obrazlar, tasvirdagi harakatlar ostiga o‘zlarining badiiy-yestektik ideallaridan kelib chiqib qat’iy tamoyil, o‘zgarmas hayot qonuniyatlarini mohi irlik bilan singdirib yuborishgan. Xullas, yozuvchi hikoyalarida roviy nutqi, roviy obrazi turli shakl va ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Eng yorqin ajralib turgan juhiti bu bayonning subyektivlikka, badiiy-falsafiylik yo‘g‘rilganligi sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif. janr, xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 356 b.
2. Yo‘lchiyev Q. Nurali Qobulning prozaik mahorati.– Toshkent: Ma’rifat bitiklari, 2021. – 252b .
3. Kollektiv. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1 tom. Adabiy asar. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b.
4. Ikromxonova F. O‘zbek va AQSH inglizzabon nasrida tarixiy asar poetikasi (kompozitsiya va obraz). Filolog. fan. doktori (DSc) dissert., 2021. – 255 b.;
5. To‘ychiyev A. Nurali Qobul nasri poetikasi (hikoya va qissalari misolida)” filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktor(phd)lik dissertatsiyasi. – Guliston, 2022. – 147 b.